Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

"SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDA FORS-TOJIKCHA TAKRORLARNING QO'LLANILISHI

Zarifaxon Vaxobovna Alimova*
FarDU tilshunoslik kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
✉ sarvar090701@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qo'llangan fors-tojikcha takrorlarning lingvostilistik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda takror hodisasining badiiy matndagi o'rni, uning nutq ta'sirchanligi va ekspressivligini oshirishdagi vazifalari yoritilgan. Doston tarkibidagi leksik, sintaktik, anafora, epifora, halqa takror, antitezali takror hamda xiazm kabi uslubiy vositalar misollar asosida tahlilga tortilgan. Fors-tojikcha birliklarning takroriy qo'llanishi orqali shoirning poetik maqsadi, mazmuniy urg'u yaratish usullari va badiiy ifoda imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Alisher Navoiy asarlari tilining boyligi, xususan, fors-tojikcha leksik birliklarning badiiy-estetik imkoniyatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar

takror, fors-tojikcha birliklar, leksik takror, anafora, epifora, halqa takror, xiazm, lingvostilistika, badiiy nutq.

DOI: 10.5281/zenodo.21743039

KIRISH

Badiiy matnning ta'sirchanligi va estetik qiymatini belgilovchi muhim omillardan biri unda qo'llangan uslubiy vositalarning rang-barangligidir. Shunday vositalardan biri bo'lgan takror hodisasi til birliklarini ma'lum maqsad asosida qayta qo'llash orqali fikrning kuchayishi, emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikning ortishi hamda badiiy ohangdorlikning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. O'zbek mumtoz adabiyotida takror san'ati keng qo'llanilgan bo'lib, u shoirning badiiy niyatini ifodalashda muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiy ijodida til imkoniyatlaridan mohirona foydalanish, so'z tanlash va ularning badiiy vazifasini namoyon etish alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada "Saddi Iskandariy" dostonida uchraydigan fors-tojikcha takrorlarning turlari, ularning grammatik va semantik xususiyatlari hamda badiiy matndagi uslubiy vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi doston tarkibidagi takror birliklarning poetik imkoniyatlarini ochib berish va ularning Alisher Navoiy badiiy tilidagi o'rnini aniqlashdan iborat.

ASOSIY QISM

Takror o'zbek tilida nutqning ta'sirchanligi va ifodaviyligini oshiruvchi uslubiy vosita hisoblanadi. Professor A.Mamajonov takror va uning turlarini sintaktik-stilistik figuralar tarkibiga kiritadi: "Sintaktik-stilistik figuralar nutqning emotsionalligini oshirishga yordam beradigan maxsus sintaktik oborotlardan iborat bo'lib, ularga *parallelizm, takror* va *uning turlari, antiteza, inversiya, ellipsis, sanash usullari, gradatsiya* kabilar kiradi" [6, 16].

She'riyatda ham bir misra tarkibida kelgan ma'lum so'z ikkinchi misra tarkibida ham takroran qo'llanilishi mumkin. Bu usul Navoiy asarlari uchun ham begona emas. Quyida "Saddi iskandariy" dostonidagi fors-tojikcha takrorlarga misollar keltirishni lozim topdik:

Ne olam diyoridin osor ***ham****,*
Ne paydo diyor ichra dayyor ***ham*** (SI.1).

Mazmuni: *Na olam makonidan nishon-u va na bu makonda yashovchilardan darak bor edi* (SI. nasriy bayon, 3).

Baytdagi arabiy *diyor* so‘zlari semantik jihatdan ko‘chma ma’noda, ya’ni *koinot, mavjud olam* ma’nosida qo‘llanilgan. ***Ham*** takrorning ***epifora*** deb nomlanuvchi turiga tegishlidir. ***Ham*** yuklama vazifasida kelib, semantik jihatdan ta’kid ma’nosini ifodalaydi va inkorni kuchaytirgan: *osor ham – hatto asar ham yo‘q; dayyor ham – hatto yashovchi (odam) ham yo‘q.* A.Mamajonov ta’kidlashicha, “epifora sintaktik konstruksiyalarning aynan bir xil formalar bilan tugallanish usulidir. Epifora takrorlangan nutq bo‘lagining ma’nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi” [6, 24].

Chu bori husng‘a ishq loyiq ***base,***

Kerak bo‘ldi husnungg‘a oshiq ***base*** (SI. 2).

Mazmuni: *Shu tufayli sening go‘zal husningga* ***ko‘p*** *oshiq kerak bo‘ldi, chunki go‘zal husnga go‘zal ishq loyiqdir* (SI. nasriy bayon, 4).

Keltirilgan baytda ***base*** (ko‘p) ravishi takror holda qo‘llangan. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida ***base*** so‘zining 2 xil izohi keltirilgan: 1. *Ko‘p, benihoya, g‘oyat, nihoyatda, shu qadar; aksari.* 2. *Hargiz, sira ham, hech ham.*

Kelib bir-biri ichra har bir nihon,

Fazo har biriga ***jahon*** *dar* ***jahon*** (SI. 2)

Mazmuni: *Falaklar bir-birining ichida maxfiy b’lib, har birining orasidagi bo‘shliq bir olamdir* (SI. nasriy bayon, 4).

Ushbu misradagi ***jahon*** leksemasi ot bo‘lib, matnda mavhum ma’noda qo‘llanilgan. Semantik jihatdan kontekstda cheksizlik, olamlar ichra olam mavjudligini bildirgan. Ushbu leksema she’riyatda ko‘p ishlatiladigan poetik leksik birlik bo‘lib, falsafiy poetik obraz yaratadi, fors-tojik adabiy an’analaridagi ***jahon dar jahon*** iborasiga ishora bor. Bu baytda Sharq falsafasiga xos chuqur ma’no asks etgan. ***Jahon*** leksemasi dostonda **310 marta** qo‘llangan.

Quyidagi baytda ***ganj*** leksemasining qo‘llanishini **halqa** turidagi takrorning kichik shakli sifatida qarash mumkin.

Qazo qismidin yetmayin ranj anga,

Bu yanglig‘ ne bir ***ganj****, besh* ***ganj*** *anga* (SI. 31).

Mazmuni: *Nizomiy Ganjaviyning xazinalari bitta emas, beshta bo‘lib, har qalay qazo qismatidan ularga shikast yetmagan* (SI. nasriy bayon, 34).

Baytdagi ***ganj*** so‘zi xazina, boylik ma’nolarini ifodalaydi. ***Ganj*** ot so‘z turkumiga tegishli bo‘lib, tub so‘zdir. Baytda ***ganj*** semantik jihatdan *nodir ne’mat, bahosi yo‘q boylik, beqiyos fazilat* mazmunida ishlatilgan. Funksional jihatdan ushbu so‘z baytning asosiy g‘oyasi – qahramonning qadr-qimmati har qanday dunyoviy boylikdan yuqori ekanini ko‘rsatishdan iborat. ***Ganj*** leksemasi dostonda **101 marta** ishlatilgan.

Quyidagi baytda ***nihon*** leksemasining qo‘llanishi ham takrorning ***halqa*** turiga tegishlidir:

Jahone ko‘rundi ko‘zumga ***nihon****,*

Nihon*, balki har bayti ichra jahon* (SI. 40).

Mazmuni: *Ko‘zimga bir yashirin jahon ko‘rindiki, uning har bayti ichra jahon yashiringan ekan* (SI.nasriy bayon, 43).

Nihon leksemasi sifat turkumiga oid bo‘lib, tub so‘z hisoblanadi. Baytning har ikki o‘rnida ham sifat vazifasida kelib, *yashiringan jahon* ma’nosini ifodalagan ushbu leksema ikki xil semantik qatlamga ega. Baytning *jahone ko‘rundi ko‘zumga nihon (ko‘z oldimda butun jahon yashirin bo‘lib ko‘rindi)* qismidagi ***nihon*** maxfiy, ko‘zga ko‘rinmas olamdir. ***Nihon****, balki har bayti ichra jahon (har bir baytning ichida ham bir yashirin jahon bor)* qismidagi *nihon* orqali ichki ma’no, majoziy olam ma’nosi ifodalangan. Demak, semantik jihatdan *nihon* ko‘z bilan emas, idrok bilan ko‘rinadigan narsadir. Ushbu so‘zning funksionalligi shuki, *nihon* baytdagi asosiy mazmunni ochuvchi kalit so‘zdir. ***Nihon*** leksemasi dostonda **91 marta** ishlatilgan.

Quyidagi baytda ***hamon*** olmoshining takrorlanishi antitezali takrorga misol bo‘ladi. A.Mamajonov ta’kidlaganidek, “nutqda ifodalilikni yanada kuchaytirish maqsadida ma’nosi jihatdan bir-biriga zid tushunchalar, mazmunan biri ikkinchisini rad etuvchi fikrlarni qarama-qarshi qo‘yish bilan qiyoslash usuli antiteza

deyiladi” [6, 27].

Qayu ishni ta’lim qilg‘on zamon,

Yeshitmak ***hamon*** *erdi – bilmak* ***hamon*** (SI. 70).

Mazmuni: *Qaysi ishni ta’lim berib o‘qitsa, u eshitgan zahotiyoq bilib olardi* (SI. nasriy bayon, 13).

Quyidagi baytda ***gahi*** bog‘lovchisi takror qo‘llangan. ***Gahi*** bog‘lovchisi Navoiy asarlarida keng qo‘llanilib, hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanuvchi ***goho*** bog‘lovchisining ayni o‘zidir. A.Mamajonov leksik-morfologik **anafora**lar haqida so‘z yuritganda ***goho*** bog‘lovchisi bog‘langan qo‘shma gaplar tarkibida kelishiga misol keltiradi [6, 20-21].

Vubolu sharaf ko‘rguzub sur’ati,

Gahi *za’fi ortib,* ***gahi*** *quvvati* (SI.5).

Mazmuni: *Uning goh to‘lishib, goh ingichkalanib holdan toyishi shundan bo‘lsa kerak* (SI. nasriy bayon, 7-8).

Baytdagi *gahi* bog‘lovchisining ANATILda *goh, ba’zan, ba’zida* kabi ma’nolari keltirilgan [2, 400-401].

Davotimki, ochti do‘koni ***guhar,***

Do‘koni guhar yo‘qki, koni ***guhar*** (SI. nazmiy bayon, 44).

Mazmuni: *Davotim (siyohdonim) gavhar do‘konini ochdi, gavhar do‘koni emas, gavhar konini ochdi* (SI. 46).

Mazkur baytdan ko‘rinadiki, *do‘koni gavhar* izofiy birikma bo‘lib, takror holda qo‘llanilgan. Uning semantik ma’nosi – gavhar do‘koni bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid ikki so‘zning izofa orqali birikishidan tarkib topgan. Shoir holatni kontrastlash orqali poetik ifoda yaratgan. Struktur jihatdan *do‘kon* bosh so‘z, *guhar* aniqlovchi sifatida kelgan. Funksional jihatdan bayt mazmunini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, birikmaning takror ishlatilishi baytga ritm va ohang beradi. Shuningdek, qarama-qarshi holatni (mavjudlik va yo‘qlik) ta’kidlovchi kontekstual vazifani ham bajaradi.

Berib doston zebi elga ***fireb****,*

So‘zidin ***fireb*** *o‘lg‘ay ortuqsi zeb* (SI. nazmiy bayon, 45).

Mazmuni: *…doston go‘zallashib, elni o‘ziga maftun qilishi turgan gap* (SI. nasriy bayon, 48).

Fireb leksemasi ANATILda *firib* shaklida kelib, semantik jihatdan *makr, hiyla, nayrang* ma’nolarini bildiradi [3, 346]. Struktur jihatdan ushbu so‘z mavhum ot, gapda *zeb, so‘zid*in so‘zlari bilan bog‘langan. Funksional jihatdan mazkur so‘z falsafiy qatlam yaratadi. Baytdagi asosiy vazifasi *fireb* tashqi go‘zallikning aldov ekanini ko‘rsatib, dostonning asl qiymati so‘zning mazmunida ekanini ta’kidlaydi.

Sifat turkumiga oid ***g‘amzudo*** leksemasining takror qo‘llanishi ham halqa turiga tegishlidir:

Ayog‘chi, ber ul javhari ***g‘amzudo****,*

Dema ***g‘amzudo****, jomi motamzudo* (SI. nazmiy bayon, 72).

Mazmuni: *Ey soqiy! G‘am tarqatuvchi sharobingdan ber, g‘am tarqatuvchigina emas, motam tarqatuvchi jomingni tut* (SI. nasriy bayon, 72).

Baytdagi ***g‘amzudo*** leksemasi ANATIlda *qayg‘uni ketkazuvchi, g‘amdan qutqaruvchi* deya izohlanadi [4, 103]. Forscha lug‘atlarda *g‘amzade* (g‘amzada) shaklida ifodalangan ushbu so‘z *tinchlantiruvchi* ma’nosini ifodalashi izohlanadi [8, 212].

Yana oncha to‘tiyi ***shakkarshikan,***

Ne ***shakkarshikan****, balki shirin suxan* (Saddi Iskandariy, she’riy bayon, 234-235-betlar).

Mazmuni: *Yana shuncha shakarguftor, shakarguftor emas, shirinsuxan to‘tilar ham bor edi* (SI. nasriy bayon, 217).

Misoldagi *shakkarshikan* ikki qismdan iborat bo‘lgan qo‘shma sifatdir. *Shakar* hamda *shikan* (*shikastan*-sinmoq, sindirmoq fe’lining hozirgi zamon asosi) so‘zlari birikkan holda yasalgan ushbu leksema gapda aniqlovchi vazifasida kelgan. Birinchi misradagi *to‘tiyi shakkarshikan* izofiy birikma bo‘lib, *shirinso‘z to‘ti* (chiroyli gapiradigan to‘ti) ma’nosini ifodalaydi. Ikkinchi misradagi *shakkarshikan* so‘zi takror holda kesimning tarkibida kelib, ta’kid, inkor va tasdiqni ifodalaydi.

Semantik jihatdan bu so‘z orqali kuchli metaforik ma’no o‘z ifodasini topgan: to‘ti - yoqimli qush, shakkarshikan - qushning maftunkor, yoqimli tabiatini tasvirlaydi. Bayt mazmuniga ko‘ra “shakkarshikan” sifatida ta’riflangan to‘tining asl go‘zalligi o‘z shirin so‘zida (nutqida)dir. Mazkur leksema baytga mumtozlik, tarovat va poetiklik beradi va musiqiylik yaratadi: ***sha–kka–rshi–kan*** tovushlarining ketma-ketligi ohangdor, qofiyaga mos, she’rning musiqiy ritmini kuchaytiradi. Fonetik jihatdan so‘zning vazni va ohangini saqlash uchun *shakkarshikan* shaklida yozilgan. Tilshunos olim M.Yo‘ldoshev ta’kidlashicha, “aslida orfoepik me’yor bo‘yicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo‘lgan so‘zlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi. So‘zlovchining ichki ruhiyati va maqsadini kitobxonga “aynan” yetkazish uchun yozuvchilar badiiy matnda bu holatni undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar” [5, 43].

Ko‘rub la’l, ***axgar*** *gumon qilmasa,*

Ham ***axgar****ni gavhar gumon qilmasa* (SI.154).

Yuqoridagi baytda ***axgar*** leksemasi takrorning ***infora*** turiga mansub forscha ot bo‘lib, denotativ jihatdan “cho‘g‘ ” ma’nosini bildirsa-da, poetik kontekstdagi qo‘llanishida metaforik-semantik kengayish asosida haqiqiy qimmatni anglay olmaslik g‘oyasini ifodalovchi obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

A.Mamajonov ***sintaktik anaforalar***ni quyidagi to‘rt guruhga ajratadi:

a) *predikativ birikmali anafora;*

b) *atributiv birikmali anafora;*

c) *obyektiv birikmali anafora*;

d) *relyativ birikmali anaphora* [6, 21].

Shart bog‘lovchisi **agar** اگر leksemasi orqali takrorning ***anafora*** turi qo‘llangan:

Agar *vojidu mojid et e’tibor,*

Agar *Hayyu Qayyum bir hukmi bor* (SI.89).

Quyidagi baytda ***parvarish*** va ***xo‘rish*** leksemalarining o‘rin almashib takrorlanishi **xiazm** (o‘rin almashgan leksik takror) usulini hosil qilgan.

Berib ***parvaris****hqa* ***munosib xo‘rish****,* ***Munosib xo‘rishdin*** *topib* ***parvarish*** (SI.68)

Mazmuni: *Uni yoqimli taomlar bilan boqib, va bu taomlardan go‘dak kundan-kunga parvarish topdi* (SI. nasriy bayon, 68).

Misralardagi ***xo‘rish*** *yemoq, iste’mol qilmoq* ma’nosini bildiruvchi *xo‘rdan* fe’lning *-ish* qo‘shimchasi bilan yasalgan harakat nomi hisoblanadi. Forscha lug‘atda ***xo‘resh*** shaklida ifodalanuvchi ushbu leksema *“mayda to‘g‘ralgan go‘shtdan, sabzavotlar bilan tomat sousida dimlab tayyorlanadigan va guruchga qo‘shiladigan taom*” deya izohlanadi [7, 580]. Misolda otlashgan fe’l bo‘lib, ot kabi qo‘llangan. Misrada ushbu leksema to‘ldiruvchi vazifasida kelgan. Misraning *berib parvarishqa munosib xo‘rish* qismida *xo‘rish* ovqat ma’nosini anglatadi. Harakat nomi bo‘lgani uchun jarayon emas, jarayonning nomi, mohiyati sifatida keladi.

Misra yoki gap oxirida bir xil so‘z yoki iboraning takrorlanishi **epifora** deyiladi. *Epifora* misralar oxirida aynan bir elementning takrorlanishidan iborat stilistik figuradir. U badiiy nutqni yanada ohangli, ifodali bayon etish uchun qo‘llanadi. Bu ko‘pincha badiiy asarlarda uchrab, o’zaro qofiyadosh, ohangdosh so’zlarning yoki bir xildagi tovush va qo’shimchalarning takrori asosida vujudga keladi [1, 78-80].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan fors-tojikcha takrorlar shoir badiiy mahoratining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Tadqiqot jarayonida takrorlarning leksik, sintaktik, anafora, epifora, halqa takror hamda xiazm kabi turlari asar mazmuni va badiiy ifodasini kuchaytirishga xizmat qilishi aniqlandi. Ushbu uslubiy vositalar orqali Navoiy fikrni ta’kidlagan, obrazlarning poetik tasvirini boyitgan va she’riy nutqning ohangdorligini ta’minlagan. Fors-tojikcha birliklarning takroriy qo‘llanishi doston tilining rang-barangligi va shoirning so‘z san’atidagi yuksak mahoratini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdusalomova D. So‘z takroriga asoslangan badiiy san’atlarda semantik-stilistik munosabatlar. “Образование, наука и инновационные идеи в мире” jurnali. 2023, № 21. – B. 78-80.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 1-жилд. –Тошкент: Фан, 1983. – Б. 400-401.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 3-жилд. –Тошкент: Фан, 1983. – Б. 346.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 4-жилд. –Тошкент: Фан, 1983. – Б. 103.
5. Йўлдошев Б. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. -Тошкент: Фан, 2007. – Б.43.
6. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 21.
7. Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. I том. – М.: Русский язык, 1983. – С.580.
8. Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. II том. – М.: Русский язык, 1983. – С.212.